



## TIJORAT BANKLARINING MOLIYA BOZORLARIDAGI RAQOBATBARDOSHЛИGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

### CURRENT ISSUES OF ENSURING THE COMPETITIVENESS OF COMMERCIAL BANKS IN FINANCIAL MARKETS

***Bobakulov To'lqin  
Ibodullayevich***

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va  
tadbirkorlik Oliy maktabi professori, iqtisodiyot fanlari doktori*

**Annotatsiya  
Annotation**

**Uzb.** - Tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash ularning resurs va daromad bazalarini mustahkamlash, likvidliligin ta'minlashning zaruriy shartidir. Jumladan, banklarning ssuda kapitallari bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash ssudalarning daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, maqolada respublika tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Eng.** - Ensuring the competitiveness of commercial banks in financial markets is a prerequisite for strengthening their resource and income base and ensuring liquidity. In particular, ensuring the competitiveness of banks in the loan capital market allows for a balance between the profitability and risk of loans. The article identifies current problems related to ensuring the competitiveness of commercial banks in the republic and develops scientific proposals aimed at solving these problems.

**Kalit so'zlar:**  
**Keywords:**

❖ *tijorat banki, raqobatbardoshlik, moliya bozorlari, kredit, muammoli kredit, zaxira, depozit, likvidlilik, foiz stavkasi.*  
❖ *commercial bank, competitiveness, financial markets, credit, problem loan, reserve, deposit, liquidity, interest rate.*

#### **Kirish.**

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishning 2020-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasida kreditlashning o'sish sur'atlari mo'tadilligini ta'minlash va kredit portfeli sifatini yaxshilash, bank sektori nazoratini takomillashtirish va banklarda tavakkalchiliklarni boshqarishning zamonaviy tizimini tatbiq etish, bank tizimi va iqtisodiyotning real sektoridagi davlat ulushi mavjud korxonalarini o'zaro muvofiq ravishda isloh qilishni ta'minlash, banklar tomonidan davlat korxonalarini va tashkilotlari faoliyatini transformatsiya qilishda tijorat asosida faol

ishtiroy etish, real sektor va moliya sektoridagi o'zgarishlar uyg'un tarzda kechishini ta'minlash, banklarning kapitaliga qo'yiladigan minimal talablarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga qo'shilishi va respublika bank tizimining xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvini hisobga olgan holda oshirish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'naliishlari sifatida e'tirof etilgan [1].

Shuningdek, "O'zbekiston - 2030" strategiyasiga muvofiq, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari

bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish maqsadida 2030-yilga qadar bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish, banklarni xususiyashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalg qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish ko'zda tutilgan [2].

Yuqorida qayd etilgan holatlar respublikamiz tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish masalasining ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy jihatlari xorijlik va o'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan hamda tegishli ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

H. Kazarenskova tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini ularning raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish va moliya bozorlariga olib chiqish, mijozlarning barcha talablariga javob beradigan ishonchli va zamonaviy bank, degan ijobjiy nufuzni (imidj) shakllantirishning potensial va real imkoniyati sifatida talqin qiladi" [3].

Ushbu talqin ma'lum darajada amaliy ahamiyatga ega bo'lgan talqin hisoblanadi. Buning sababi shundaki, tijorat bankining moliya bozorlaridagi nufuzini belgilovchi asosiy omil bo'lib, bank xizmatlarining mijozlar uchun qulayligi hisoblanadi. Ushbu qulaylik bank mahsulotlarining sifati va bahosida namoyon bo'ladi. Biroq, H. Kazarenskova tijorat bankining moliyaviy barqarorligi va likvidliligin raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omillar ekanligiga e'tibor qaratmagan.

B. Xabarova va Yu. Popova tijorat bankining raqobatbardoshligini ta'minlash omillari sifatida ular tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlarning bahosi, sifati va xizmat ko'rsatish darajasini ko'rsatadi [4].

J. Sinkining xulosasiga ko'ra, tijorat bankining raqobatbardoshligini ta'minlovchi uch omil mavjud: bank xizmatlarining bahosi, xizmatlarning xaridor uchun qulayligi va bankning reputatsiyasi [5].

J. Sinki tijorat banki reputatsiyasining quyidagi muhim jihatlari mavjudligini e'tirof etadi:

- hukumat tomonidan banklarga beriladigan kafolatlar jamiyatda banklarga va bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi;

- hukumat tomonidan banklarga haddan ziyyod ko'p kafolatlar berilishi (har qanday qarzni 100 foizli sug'urtalash) bozor qonunlari talablarini inkor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Shu jihatdan olganda, A. Berger, S. Choul, O. Guedhami va R. Romanning tijorat banki rahbariyatining davlat tomonidan qutqarish bo'yicha beriladigan kafolatga ishonishi o'ta yuqori darajadagi risklarni qabul qilinishiga olib kelishi mumkinligi xususidagi xulosasi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi [6]. Chunonchi, respublikamizda davlat banklari davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi va mazkur holat ular tomonidan juda yuqori darajadagi risklarni qabul qilishga sharoit tug'diradi.

G.A. Bekmurodovning fikriga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklari raqobatbardoshligi ko'rsatkichlarini keng tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, joriy likvidlik ko'rsatkichlarini Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yorlar bilan muntazam ravishda qiyoslab borish, aktivlar va passivlarni hamda likvidlikni boshqarish moliyaviy tahlilning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [7].

B. Berdiyarovning xulosasiga ko'ra, tijorat banklari birlamchi zaxiralarining o'sish sur'atini depozitlarning o'sish sur'atidan ortda qolmasligini ta'minlash, yuqori likvidlik aktivlarning jami aktivlar hajmidagi salmog'ining barqaror darajasiga erishish, hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning jami aktivlar hajmidagi salmog'ining nisbatan yuqori va barqaror darajasini ta'minlash orqali tijorat banklarining joriy likvidliligini ta'minlash lozim [8].

B. Berdiyarovning ushbu xulosasi respublikamiz tijorat banklari - Asakabank, Turonbank va Aloqabankning aktivlari va passivlariga oid bo'lgan ma'lumotlarning tahlillariga asoslangan bo'lib, tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtanazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar respublikamiz tijorat banklari aktivlarining umumiyoj hajmida nisbatan kichik salmoqni egallyaydi; ikkinchidan, tijorat banklari depozit bazasining yetarliligi ta'minlanmagan. Bu esa, tijorat banklarining likvidliligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda.

O. Abdurahmonov va A. Mirsoatovlarning xulosasiga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda O'zbekistonning bank sektorini rivojlanishini belgilovchi ikki asosiy strategik vazifa mavjud: birinchidan, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va ichki bozorda bank xizmatlari miqyosini kengaytirish; ikkinchidan,

O'zbekiston banklarining xalqaro kapitallar bozoridagi ishtirokini faollashtirish [9].

### Tadqiqot metodologiyasi.


O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini tavsiflovchi bir qator asosiy ko'rsatkichlar (likvidlilikni qoplash me'yori, sof barqaror moliyalashtirish me'yori, kapitalning yetarliligi va boshq.) Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan prudensial nazoratning obyekti hisoblanadi [10].

Shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar (sof foizli marja, kredit portfelining diversifikatsiyasi, aktivlarning rentabelligi va boshq.) va ularning chegaraviy mezonlari tijorat banklarining Kengash tomonidan tasdiqlanadigan ichki me'yoriy hujjatlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlaridan va Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining yillik hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash ko'p omilli jarayon bo'lib, ushbu jarayonga tashqi omillar va bevosita bankning o'ziga bog'liq bo'lgan ichki omillar (aktivlarning rentabelligi, aktivlar portfellarining diversifikatsiya darajasi, risk-menejment tizimining sifati va boshq.) ta'sir qiladi.



**1-rasm. TIF Milliy banki va Asakabankda sof foizli marjaning darjası<sup>1</sup>, foizda**

<sup>1</sup> Rasm muallif tomonidan TIF Milliy banki va Asakabankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rindiki, TIF Milliy bankida sof foizli marjaning darajasi 2022-yilda xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy talab darajasida bo'lgan. Biroq, ushbu ko'rsatkich 2023 va 2024-yillarda pasayish sur'atlarini namoyon etgan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rindiki, Asakabankda sof foizli marjaning darajasi 2022-2024-yillarda pasayish tendensiyasiga

ega bo'lgan. Buning ustiga, tahlil davrida mazkur ko'rsatkichning xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy darajasi ta'minlanmagan.

Tijorat banklarining ssuda kapitallari bozoridagi raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlaridan biri - bu kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ko'rsatkichidir.

#### 1-jadval

#### "O'zmilliybank" AJda kreditlar va kreditlardan olingan foizli daromadlarning yillik o'sish sur'atlari<sup>2</sup>, foizda

Ko'rsatkichlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<i>Kreditlarning o'sish sur'ati</i>	120,8	111,2	108,6
<i>Kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati, so'mda</i>	150,6	121,2	118,4

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindiki, "O'zmilliybank" AJda tahlil qilingan davr (2022-2024-yy.) mobaynida kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangan, ya'ni kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati kreditlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklarining ssuda kapitallari bozoridagi raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib, ular tomonidan berilayotgan kreditlarning foiz stavkalarini darajasi va barqarorligi hisoblanadi.

#### 2-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi, Markaziy bank asosiy stavkasining yillik darajasi va inflatsiyaning yillik sur'ati<sup>3</sup>, foizda

Ko'rsatkichlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
<i>Kreditlarning foiz stavkasi</i>	21,9	23,1	323,7
<i>Markaziy bankning asosiy stavkasi</i>	15,0	14,0	13,5
<i>Inflatsiyaning yillik sur'ati</i>	12,3	8,8	9,8

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindiki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mamlakat tijorat banklarining

ssuda kapitallari bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

O'z navbatida, tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasini tahlil davrida baland

<sup>2</sup> Jadval muallif tomonidan TIF Milliy banki va Asakabankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.


<sup>3</sup> Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bo'lganligi Markaziy bankning asosiy stavkasini ushbu davrda yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi. Buning ustiga, tahlil davrida Markaziy bankning asosiy stavkasining o'zgarishi bilan banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning foiz stavkasini o'zgarishi o'rtaida uzbek aloqadorlik kuzatilmagan.

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rindaniki, respublikamizda inflatsiyaning yillik sur'ati 2022-2024-yillarda nisbatan yuqori bo'lgan. Buning ustiga, inflatsiya sur'ati 2024-yilda 2022 yilga nisbatan sezilarli darajada, ya'ni 2,5 foizli punktga oshgan.

E'tirof etish joizki, pul-kredit siyosatining ayrim instrumentlari tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri bo'lgan majburiy zaxira siyosati tijorat banklarining likvidlilikiga va depozit bazasining barqarorligiga bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Buning sababi shundaki, birinchidan, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi depozitlariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira stavkasi juda yuqori; ikkinchidan, majburiy zaxira ajratmalari summasi tijorat banklarining milliy valyutadagi "Nostro" vakillik hisobraqamidan olib qo'yilmoqda. Bu esa, alal-oqibat tijorat banklarining likvidlilikiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltirmoqda va, buning natijasida, banklardagi balanslashmagan likvidlilik muammosini chuqurlashishiga olib kelmoqda.



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida Markaziy bankning tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi depozitlariga nisbatan o'rnatgan majburiy zaxira stavkalari, 2024-yilning 1-yanvar holatiga<sup>4</sup>**

2-rasmida keltirilgan statistik ma'lumotlardan aniq ko'ringanki, respublikamizda Markaziy bankning tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi depozitlariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira stavkasi Rossiya va Qozog'istonga nisbatan juda yuqori. Bu esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, tijorat banklarining likvidlilikiga va depozit bazasining

barqarorligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ko'pchilik iqtisodchi olimlar majburiy zaxira siyosatiga, pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida, salbiy munosabat bildiradi. Masalan, prof. F.Mishkinning fikriga ko'ra, majburiy zaxiralash me'yoring oshirilishi ortiqcha likvidlilik zaxiraiga ega bo'lмаган tijorat

<sup>4</sup> Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida Markaziy bankning rasmiy internet-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

banklarida likvidlilik muammosini chuqlashishiga olib kelishi mumkin [11].

### Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

❖ tijorat banklarining moliya bozorlaridagi nufuzini belgilovchi asosiy omil bo'lib, bank xizmatlarining mijozlar uchun qulayligi hisoblanadi va ushbu qulaylik bank mahsulotlarining sifati va bahosida namoyon bo'ladi;

❖ tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillar bo'lib, bank xizmatlarining bahosi, xizmatlarning xaridor uchun qulayligi va bankning reputatsiyasi hisoblanadi;

❖ tijorat banki rahbariyatining davlat tomonidan qutqarish bo'yicha beriladigan kafolatga ishonishi o'ta yuqori darajadagi risklarni qabul qilinishiga olib kelishi mumkin;

❖ Asakabankda sof foizli marjaning darajasi 2022-2024-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, tahlil davrida mazkur ko'rsatkichning xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy darajasi ta'minlanmagan;

❖ "O'zmilliyybank" Ajda 2022-2024-yillarda kreditlarning o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangan, ya'ni kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati kreditlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan;

❖ respublikamiz tijorat banklari tomonidan milliy valyutada berilgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi 2022-2024-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, tahlil davrida baland bo'lganligi Markaziy bankning asosiy stavkasini ushbu davrda yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi. O'z navbatida, asosiy stavkani yuqori bo'lganligi

mazkur davrda inflatsiyaning yillik sur'atini nisbatan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Sof foizli daromadlar bilan bank aktivlarining riskka tortilgan summasining o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan sof foydaning darajasini oshirish maqsadida, birinchidan, banklararo kreditlarning passivlar hajmidagi salmog'ini pasaytirish va reguliyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ini oshirish asosida foizli daromadlar bilan foizli xarajatlar o'rtasidagi barqaror nisbatni ta'minlash kerak; ikkinchidan, foizsiz xarajatlarning foizsiz daromadlarga nisbatan nisbatan past va barqaror darajasini ta'minlash lozim; uchinchidan, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar miqdorini ko'paytirish yo'li bilan bank aktivlarining riskka tortilgan summasini kamaytirish kerak.

Qozog'istonning "HALYK Bank"ining sof foizli daromadlar bilan bank aktivlarining riskka tortilgan summasining o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash borasidagi tajribasini o'rganishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

"Halyk Bank"da sof foizli daromadlar bilan bank aktivlarining riskka tortilgan summasining o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali sof foydaning o'sish sur'atini bank aktivlarining riskka tortilgan summasining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi ta'minlangan.

2. Tijorat banklari kreditlarining barqaror daromadlilik darajasini ta'minlash uchun, birinchidan, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining brutto kreditlarga nisbatan darajasini pasaytirish kerak; ikkinchidan, kreditlarning o'sish sur'ati bilan ulardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan tijorat bankining milliy ssuda kapitallari bozoridagi

raqobatbardoshligini ta'minlash lozim; uchinchidan, kreditlardan olingan foizlari daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i bilan kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i o'rtasidagi monandlikni ta'minlash zarur.

Fikrimizcha, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining brutto kreditlar hajmidagi salmog'inini pasaytirish uchun, birinchidan, kredit riskini baholash va boshqarishning ilg'or xorij tajribasida keng qo'llanilayotgan usullaridan respublika tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kompleks foydalanishni ta'minlash lozim (masalan, kredit riskini baholashning standartlashgan usuli hozirga qadar mamlakat banklarining kreditlash amaliyotiga joriy qilinmagan); ikkinchidan, salbiy kredit tarixiga ega bo'lgan insofsiz mijozlarga kredit yig'ma jildi ma'lumotlari asosida kredit berishni rad etishning huquqiy asosini yaratish kerak; uchinchidan, kredit olmoqchi bo'lgan mijozlarning pul oqimini tahlil qilish asosida umumiyligi pul oqimining majburiyatlarga nisbatan darajasi yuqori bo'lgan mijozlargagina yirik kreditlar berish tartibini joriy qilish zarur; to'rtinchidan, hosilaviy kredit instrumentlarini

(credit derivatives) banklarning kreditlash amaliyotiga joriy qilish lozim.

3. Markaziy bankning majburiy zaxira siyosatini tijorat banklarining likvidliligiga va depozit bazasining barqarorligiga nisbatan salbiy ta'siriga barham berish uchun, birinchidan, muddatli depozitlarni majburiy zaxira talabnomalaridan, ularni iqtisodiyotning real sektori korxonalarini kreditlash va ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish sharti bilan, ozod qilish zarur; ikkinchidan, tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi depozitlariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira stavkasini ularning milliy valyutadagi depozitlariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira stavkasi darajasiga tushirgan holda, majburiy zaxira stavkalarini unifikatsiya qilish kerak; uchinchidan, xorijiy valyutadagi depozitlar bo'yicha hisoblangan majburiy zaxira ajratmalarini banklarning milliy valyutadagi "Nostro" vakillik hisobraqamidan olib qo'yish tartibini bekor qilish va majburiy zaxira ajratmalari summasini milliy va xorijiy valyutalardagi "Nostro" vakillik hisobraqamlarida foydalilmaydigan qoldiq sifatida qoldirish zarur.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.
3. Казаренкова Н. П. Конкурентоспособность коммерческого банка на региональном рынке кредитных услуг населению: автореф. дис. ... канд. экон. наук; Орловский государственный технический университет. – Орел, 2006. - С. 11.
4. Хабаров В. И., Попова Н. Ю. Банковский маркетинг. – М.: Московская финансово-промышленная академия, 2004.
5. Sinki J. Financial management in a commercial bank and in the financial services industry. Translated from English. – M.: Alpina Publisher, 2017. – P.48.
6. Berger A. N., Ghoul S., Guedhami O. and Roman R. A. Internationalization and Bank Risk. Management Science, 2017. - № 63 (7). – R. 2283-2301.
7. Bekmurodova G.A. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2016-yil.

8. Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. If.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 73 b.

9. Абдурахмонов О.К., Мирсаатов А.К. Обеспечение финансовой устойчивости банковской системы Узбекистана//Norwegian Journal of development of the International Science, 2019. – № 34. – С. 34-37.

10. O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: 03/19/582/4014-son. 12.11.2019-y.

11. Мишки Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела финансовых рынков. 7-ое издание. Пер. с англ. -М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – 490.